

ZAMONAVIY SAVDONING TURLARI HAQIDA DINIMIZDA NIMALAR
AYTILGAN?

Shodmonov Sirojiddin Navruz o'g'li

O'zbekiston xalqara islom akademiyasi magistranti.

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy savdo turlari, xususan sarroflik va tasid savdolari, ularning islom dinidagi hukmlari, ularga nisbatan islom dini tomonidan beriladigan ko'rsatmalar hamda ularning dalillari zamonamiz olimlarining mo'tabar ilmiy asarlari asosida o'rganildi.

Kalit so'zlar: *Savdo, Zamonaviy savdo, Sarroflik, Taqsit savdosi Islom moliyasi, Fiqh.*

“Savdo” so'zi arab tilida “bay” deyilib, “o'zaro bir narsani almashtirish” ma'nosini bildiradi.

Shariatda esa bir molni ikkinchi bir mol muqobiliga rozi bo'lib qabul qilib olishga “bay” deb aytiladi.

Qisqa qilib aytganda, “savdo” so'zi “tijorat” so'zidan umumiyroq bo'lib, bugungi kunning istilohida “bozor iqtisodi” ma'nosiga yaqinroq keladi¹⁵⁴.

Ma'lumki, oldingi samoviy dinlarning shariatlari ma'lum vaqt va ma'lum hududga xos qilib joriy yetilgan. Vaqt o'tishi bilan u shariatning hukmlari bekor qilinib, o'rniga yangitdan shariat joriy qilingan. Islom shariati qiyomatgacha davom etadigan shariatdir. Uning o'ziga xosligi, barcha zamon va makonlarga mos kelishidadir. Chunki, insoniyat bir qolipta qotib qolmaydi. Vaqt o'tishi bilan hamma narsa o'zgaradi, oldingilari eskirib, o'rniga yangi narsalar paydo bo'ladi, yangicha holatlar yuzaga keladi. Shunday holatlarda islom shariatida ulamolar tomonidan ijthod qilinib, qiyos qilinib yangi masalalarga javob beriladi. Halol bilan haromning o'rtasi ajratiladi. Xususan moliyaviy masalalarda ham.

Gapimizning yaqqol tasdig'ini savdo masalalarida ko'rishimiz mumkin. Chunki ilgari zamonlarda o'sha zamonga mos ravishda savdo-sotiq turlari bo'lgan. Hozirgi kunimizda esa, har xil savdo turlari paydo bo'lgan. Har bir yangidan paydo bo'lgan savdo turlarini islom ulamolari o'rganib chiqib, fiqhiy qoidalar asosida unda doir hukmlarini bayon qilib kelmoqdalar.

Quyida o'sha savdolardan bir nechtaga to'xtalib o'tamiz:

• **Sarf savdosi** (*pul birliklarini bir-biriga almashtirish*)ga oid zamonaviy hukmlar

“Sarf” so'zi lug'atda “sarflamoq, qaytarmoq” ma'nolarini bildiradi¹⁵⁵.

Muxtasar ul-Quduriyda unga quyidagicha ta'rif berilgan:

“Sarf- savdo turlaridan biri bo'lib unda ikki tomondagi yevaz ham pul bo'ladi”¹⁵⁶

Imom Kosoniy “Badoe' us-sanoe” da quyidagi ta'rifni keltiradi:

“Shariat istelohida “Sarf” - pullarni bir-biriga, masalan, tillani tillaga, kumushni kumushga yoki ulardan birini boshqasiga sotishdir”¹⁵⁷

¹⁵⁴ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va Hayot 11-juz. – Toshkent: “Hilol nashr”, 2008. – B.7.

¹⁵⁵ Nosirov. O., Yusupov. M. va boshqalar. An-Naim ul-kabiyr (arabcha-o'zbekcha lug'at). – Namangan: “Namangan nashriyoti”, 2014. – B.379.

¹⁵⁶ Abul Hasan Aliy ibn Abu Bakr al-Marg'inoniy. Hidoya. – Karachi: “Bushro”, 2018. 5-juz. – B.269.

Bu savdo shariatda joiz savdo hisoblanadi. Bu savdo qadimdan ma'lum va mashhur bo'lib uning oddiy savdolardan farqli, o'ziga xos hukmlari mavjud. Jumladan, bu savdoda nasiya joiz emas. Bir jinsdagi pullarni almashtirganda tenglik va qo'lma-qol oldi-berdi bo'lishi kerak. Jinslari har xil pullarda tenglik shart emas.

Hadisi shariflardan dalillar:

Molik ibn Avs bunday xabar qiladi: «Men yuz dinorni almashtirmoqchi bo'ldim. Shunda Talha ibn Ubaydulloh meni chaqirdi. Ikkimiz savdolashdik, u menga almashtirib beradigan bo'ldi. Tillani olib, qo'lida aylantirib ko'rdi. Keyin: «Xazinabonim o'rmondan kelsin», dedi. Umar buni eshitib turgan edi, bunday dedi: «Allohga qasamki, undan olmaginguncha ajramaysan. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam:

«Qo'ldan qo'lga bo'lmasa, tillaga tilla ribodir. Qo'ldan qo'lga bo'lmasa, bug'doyga bug'doy ribodir. Qo'ldan qo'lga bo'lmasa, arpaga arpa ribodir. Qo'ldan qo'lga bo'lmasa, xurmoga xurmo ribodir», deganlar»¹⁵⁷.

Molik ibn Avs roziyallohu anhumning yuz dinor tilla pullari bor ekan, uni kumush pul, dirhamga almashtirishga hojatlari tushib, «Kim almashtiradi?» deb odam izlaganlar. Ana shunda u kishini Tolha ibn Ubaydulloh roziyallohu anhu o'z yonlariga chaqirib, pulni almashtirib berishga tayyor ekanliklarini izhor qilganlar. Ikkovlari baholashib, ma'lum narxga kelishishgan. Molik ibn Avs roziyallohu anhu o'zlarining yuz dinor tillalarini Tolha ibn Ubaydulloh roziyallohu anhuga berganlar. U kishi tilla pullarni olib, Qo'llarida aylantirib turib, Molik ibn Avs roziyallohu anhuga: «Xazinachim o'rmondan kelsa, dirhamlarni senga beraman», deganlar.

Bu gaplarni eshitib turgan Umar ibn Xattob roziyallohu anhu Molik ibn Avs roziyallohu anhuga: «Tolhadan ajramay tur, xazinachisi kelib, senga dirhamlarni berganidan keyingina ajrab ketsang bo'ladi. Bo'lmasa muomalangiz riboga aylanib qoladi», degan ma'noda gap aytganlar.

Shuning uchun ham sarf - pul almashtirish muomalasining to'g'ri bo'lishi uchun qo'yilgan to'rtta shartdan eng avvalgisi - ikki tomon muomala joyida turib, almashtirgan narsasini qo'lma-qol olishidir.

Agar kelishib, qo'lma-qol olmay yoki biri olib, ikkinchisi Olmay ajrashsalar, kelishuvlari botil bo'ladi. Chunki bu ikki holatda ham asosiy shart qo'lma-qol olish buzilgan bo'ladi va muomala riboga o'xshab qoladi. Ya'ni qo'lma-qol olmay turib ajrashish mumkin emas.

Ajrashmasalar, vaqtning o'tishi e'tiborga olinmaydi. Birga uxlasalar, bir joyga borsalar, mayli. Lekin ajralishlari bilan botil bo'ladi.

Bu hukm kelajak noqulayliklarning oldini olish uchun qilingan. Agar ajrashgandan keyin ham bo'laveradi, deyilsa, ba'zi firibgarliklar uchun katta yo'l ochilishi mumkin bo'ladi. Misol uchun, bir tomon mablag'ni olib, «Hali keyin yoki ertaga olib kelib beraman», deydi-da, olgan mablag'ni darhol «aylantirgani» qo'yadi. Ikkinchi tomonning molini berishni kechga surishi ham mumkin. Orada xilof chiqadi: birov pulini vaqtida olmay, zarar ko'radi. Boshqasi esa birovning pulidan foyda ko'radi. Shundan keyin zarar tortgan tomon haq so'raydi. U haqni

¹⁵⁷ Alouddin Abu Bakr ibn Mas'ud al-Kosoniy. Badoe' us-sanoe'. – Bayrut: “Dorul kutubil ilmiyya”, 2003. 4-juz. – B. 453.

¹⁵⁸ Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriy. Sahihul Buxoriy. – Suriya: “Muassasatur risala”, 2020. – B.617.

olsa, ribo bo'ladi. Olmasa, ichi kuyadi. Hozirgi kundagi ko'pgina muammolar ham shundan kelib chiqmoqda¹⁵⁹.

Yana hadis matniga qaytaylik. Hazrati Umar roziyallohu anhu Molik ibn Avsga «Almashtirgan pulingni olmaguningcha, Tolha ibn Ubaydullohdan ajramay tur», deganlari shar'iy hukm ekanini bildirish uchun Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamdan eshitgan hadislarini keltirdilar.

«Qo'ldan qo'lga bo'lmasa, tillaga tilla ribodir».

Ya'ni «Ma!» deb biri tillani berishi kerak, ikkinchisi ham dinorni o'sha majlisda «Ma!» deb uning qo'lga berishi lozim. Bug'doy, arpa, xurmolarni bir-biriga, ya'ni bir jinsdagi narsalarni almashtirishda ham shu qoida ishlatiladi.

Habibdan rivoyat qilinadi: U kishi Abu Minhol roziyallohu anhumning shunday deya-yotganlarini eshitdi:

«Baro ibn Ozibdan sarf, ya'ni pul almashtirish haqida so'radim. «Zayd ibn Arqamdan so'ra, u yaxshiroq biladi», dedi. Zayddan so'rasam, «Barodan so'ra, u yaxshiroq biladi», dedi. So'ngra ikkovlari:

«Rasululloh sollallohu alayhi vasallam kumushni tillaga qarzga sotishdan nahiy qilganlar»¹⁶⁰, deyishdi».

Muslim va Buxoriy rivoyat qilishgan. Buxoriyning lafzida: «Agar qo'lma-qo'l bo'lsa, hech gap emas. Ammo nasiya bo'lsa, bo'lmaydi», deyilgan. Ushbu rivoyatda sahobai kiromlarning kamtarliklari va bir-birlarini hurmat qilishlari yorqin namoyon bo'lmoqda. Baro ibn Ozib va Zayd ibn Arqam roziyallohu anhumolar bir-birlarini o'zidan ko'ra ilmiyroq deb hurmat qilishlari va savol so'rab kelgan kishini o'z birodari tomon yuborishlari shuni ko'rsatadi.

Ushbu hadisi sharifdan sarroflik ikki xil pul birligida qo'lma-qo'l ravishda bo'lishi, nasiyaga hech narsa qolmasligi qoidasi kelib chiqadi¹⁶¹.

Bu turdagi savdo qadimdan ma'lum va mashhur bo'lib uning oddiy savdolardan farqli, o'ziga xos hukmlari mavjud. Jumladan, bu savdoda nasiya joiz emas. Bir jinsdagi pullarni almashtirganda tenglik va qo'lma-qol oldi-berdi bo'lishi kerak. Jinslari har xil pullarda tenglik shart emas. Bu hukmlar qadimiy fiqhiy kitoblarda batafsil yoritilgan.

Shu o'rinda muzoyada savdosiga biroz to'xtalib o'tsak:

Muzoyada savdosi – bizning tilimizda kim oshdi savdosi yoki ajnabiy tildan kirib kelgen istiloh bilan “auksion” deb yuritiladi:

Bu turdagi savdo qadimda ham bo'lgan. Ayrim ulamolar bu savdoni makruh deyishgan¹⁶². Jumhur fuqaholar esa, bu savdoni joiz, deydi va bunga quyidagi hadisni dalil qilishadi:

Anas ibn Molik roziyallohu anhuda rivoyat qilinadi:

«Nabiy sollallohu alayhi vasallam bir to'qim va qadah sottilar va aytilarki:

«Mana bu to'qim va qadahni kim sotib oladi?».

Bir kishi:

¹⁵⁹ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Hadis va Hayot 11-juz. – Toshkent: “Hilol nashr”, 2016. – B.138.

¹⁶⁰ Abu Abdullox Muhammad ibn Ismoil Buxoriy. Saxixul Buxoriy. – Suriya: “Muassasatur risala”, 2020. – B.619.

¹⁶¹ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Bozor va unga bog'liq masalalar – Toshkent: “Hilol nashr”, 2019. – B.84.

¹⁶² Shayx Muhammad Taqiy Usmoniy. Fiqxul buyu' a'la mazaxibil arbaa'. – Dimashq: “Darul qolam”, 2020. – 1-jild. B.120.

“Bir dirhamga olaman”, dedi.

U zot:

“Kim bir dirhamdan ziyoda qiladi?”, dedilar.

Bir kishi ikki dirham berdi. Rasullulloh o'sha kishiga sottilar”¹⁶³.

Agar mahal (mol) mashru' (shariyatda savdo qilish joiz) bo'lsa muzoyada savdosi joiz. Muzoyada e'loning o'zi sotuvchi tomonidan ijob bo'la olmaydi. U faqat gina muzoyadada ishtirok yetish uchun shaqiriq hisoblanadi. Ishtirokchilar tomonidan taqdim qilinadigan takliflar ular tomonidan ijob hisoblanadi. B ijoblar sotuvchining qabuliga karab turadi. Sotuvchi xech bir ijobni qabul qilmaslikka haqli. Biroq sotuvchi bir ijobni qabul qilsa, keyin undan qayta olmaydi. Har bir taklif bildirgan xaridor sotuvchi uning ijobini qabul qilmasdan oldin taklifidan qaytishga haqli. Bunda bir kishining taklif qabul qilinmasdan oldin unga ziyoda qilib boshqa taklif berish hadisda qaytarilgan birovning savdosi ustiga savdo qilish hisoblanmaydi. Bu savdoda sotuvchi eng yuqori taflifni qabul qilishga majbur emas. Past taklifni tanlashga haqqi bor¹⁶⁴.

• **Taqsit savdosi (muddatli to'lovga savdo qilish)**

Arablarda bu savdoni “shiroun bit taqsit”, ruschada “rassrochka”, Britaniyada “hire purchase”, Amerikada esa “instalment buying” deb nomlanadi. Hozirgi kunga kelib bizning diyorimizda ham qo'llanila boshladi¹⁶⁵.

Taqsit savdosi (muddatli to'lovga savdo qilish) bugungi kunda keng qo'llanilayotgan savdo turlaridan biridir. Buning sababi, ko'pchilikda uy-joy, avtoulov, zamonaviy maishiy texnikalar va shunga o'xshash qimmatbaho buyumlarni birdaniga naqd sotib olish uchun mablag' yetarli bo'lmaydi. Shunday holatda muddatli to'lovga savdo qilishga ehtiyoj tushadi.

“**Taqsit**” so'zi lug'atda “bir necha muddatlarga bo'lmoq, bo'lib-bo'lib to'lamoq” degan ma'noni bildiradi¹⁶⁶.

“**Taqsit savdosi**” – zamonaviy savdo turlaridan biri bo'lib, bunda sotuvchi bilan xaridor bir narxga kelishadi va sotuvchi molni xaridorga topshiradi, xaridor esa kelishilgan pulni belgilangan muddatda bo'lib-bo'lib to'laydi¹⁶⁷.

Taqsit savdosi shu sifatdagi barcha savdolarni o'z ichiga oladi. Bunda kelishilgan narx bozor narxiga barobar bo'lishi, yoki undan ko'p yo oz bo'lishining farqi yo'q. Lekin ko'pincha, taqsit savdosida kelishilgan narx o'sha tovarning bozordagi narxidan qimmat bo'ladi.

Shu o'rinda savol tug'iladi: muddatli to'lovga belgilangan narx naqd savdodagi narxdan ko'p bo'lishi joizmi?

Bu masalada faqih olimlar qadimda ham, hozir ham o'z fikrlarini bildirishgan.

Ba'zilari: “Joiz emas”. Chunki bunda muddatning evaziga narx oshiriladi. Bu esa ribodir. Yoki aniq ribo bo'lmagan taqdirda ham riboga o'xshash bo'lib qoladi”, deyishgan.

¹⁶³ Muhammad ibn Iyso at-Termiziy. Sunani Termiziy. – Suriya: “Muassasatur risala”, 2017. – B.566.

¹⁶⁴ Shayx Muhammad Taqiy Usmoniy. Fiqhul buyu' a'la mazahibil arbaa'. – Dimashq: “Darul qolam”, 2020. – 2-jild. B.1105.

¹⁶⁵ <http://fiqh.uz/maqola/322>

¹⁶⁶ Nosirov. O., Yusupov. M. va boshqalar. An-Naim ul-kabiyr (arabcha-o'zbekcha lug'at). – Namangan: “Namangan nashriyoti”, 2014. – B.553.

¹⁶⁷ Shayx Muhammad Taqiy Usmoniy. Buxus fiy qozoya fiqhiyya muosira. – Dimashq: “Darul qolam”, 2020. – 1-jild. B.11.

Bu gap Zaynul Odibidin Aliy ibn Husayn, Nosir, Mansur billah, Hodivayhlardan naql qilingan.

Amma to'rt mazhab ulamolari, barcha muhaddis va faqih ulamolar bozor narxidan qimmatga, muddatli to'lovga savdo qilishni joiz sanashgan. Lekin buning sharti, sotuvshi va xaridor savdo bitimi amalga oshirayotgan paytda ma'lum muddat va ma'lum narxni uzil-kesil belgilab olishi lozim.

Lekin, aniq bir to'xtamga kelmay, naqd bo'lsa falon so'mga, nasiyaga falon so'mga, deb savdolashsa va ikkita narxdan birini ta'yin qilmasa, bu savdo joiz bo'lmaydi. Chunki bu holatda nizoga olib borish ehtimoli bor.

Imom Termiziy "Sunan"da Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilingan: **"Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bir savdoning ichida ikkita savdo qilishdan qaytardilar¹⁶⁸"** hadisidan keyin shunday deydi:

"Ahli ilmlarning ba'zilari bu hadisni sharhlab, bunday degan:

"Bir savdoning ichida ikkita savdo qilish – "bu matoni naqdga o'n dirhamga, nasiyaga yigirma dirhamga sotaman" deb aytish va ikkita narxdan biriga kelishib olmasdan ajralib ketishdir. Agar bir narxga kelishib olishsa, bu joiz bo'ladi".

Imom Termiziyning gapining xulosasi shuki, bu savdoning joiz bo'lmay qolishining sababi, savdo aqdi tuzilgan paytda bir to'xtamga kelmasdan, ikkita holatda narx ikki xil bo'lishidir. Bu narxning noaniq bo'lishiga olib keladi. Keyin esa nizo kelib chiqadi. Demak, bu turdagi savdoning joiz emas deyilishi, muddat sababidan emas.

Agarda ikkita narxdan birini ta'yin qilib, noaniqlik ketkazilsa, bu savdo shar'an joiz bo'ladi.

Imom Termiziy aytgan gaplar to'rt mazhab imomlari va barcha fuqaholarning tutgan yo'lidir. Ushbu gapning dalillari ustun turadi. Chunki, Qur'oni karimda ham, hadisi shariflarda ham bu turdagi savdoning joiz ekanligini man' qiladigan dalil yo'q. Riboning ta'rifi esa, bu turdagi savdodagi narxning ziyoda bo'lishiga tushmaydi. Sababi, bu savdo qarz berish ham emas, ribaviy mollar oldi-sottisi ham emas. Bu oddiygina savdo, xolos. Sotuvchi molini o'zi xohlagandek narxga sotishga haqqi bor. Doim bozor narxida sotishi majburiy emas. Savdogarlar holat va vaziyatlarga qarab, har xil narxlar belgilaydi. Goho mollarning narxlar holatlar o'zgarishi bilan o'zgarib turadi. Shariat kishi o'z molini bir holatda boshqa narxga, yana bir holatda boshqa bir narxga sotishini man' qilmaydi.

Bundan tashqari, molini naqdga (masalan) sakkiz so'mga, nasiyaga o'n so'mga sotadigan kishi, bil ijmo' naqdga o'n so'mga sotishi mumkin. Modomiki, bunda firibgarlik yoki aldov aralashmasa bo'ldi. Nima uchun endi, nasiyaga o'nga sotishi joiz bo'lmasligi kerak?!

Sotuvchi tovar narxini aytayotganda turli qiymatda aytishi mumkin. Masalan, sotuvchi naqdga sakkiz so'mga, nasiyaga o'n so'mga sotaman, deyishi kabi. Shu o'rinda bir savol paydo bo'ladi, xaridor tovar pulini turli muddatda berishiga qarab, sotuvchi bir vaqtni o'zida turli bahoni aytishi mumkinmi? Masalan, sotuvchi bir oyga o'n so'mga, ikki oyga yigirma so'mga, uch oyga qiriq so'mga sotaman, deyishi kabi. Bu masala borasida faqihlardan biror qavl naql qilinmagan, lekin, ulardan naql qilingan ba'zi qavllarga qiyosan savdoda bu tarzda narx aytish

¹⁶⁸ Muhammad ibn Iyso at-Termiziy. Sunani Termiziy. – Suriya: "Muassasatur risala", 2017. – 1-jild. B.569.

ham joizdir. Chunki, naqd va nasiya e'tiboridan qiymatni turli bo'lishi joiz bo'lgani kabi, muddatni turli bo'lishiga qarab narxlarni kam va ko'p bo'lishi ham durustdir. Chunki, ikki surat orasida hech qanday farq yo'q.

Tovar narxini aytayotganda tovar qiymatini turlicha aytish, durustdir. Lekin, oxir-oqibat savdo tugashi vaqtida tomonlar aniq biri qiymat va muddatni tayin qilib olishlari shartdir. Aks holda savdo durust bo'lmaydi.

Agar narx aytayotgan paytda sotuvchi xaridorga pulini bir oydan keyin bersang o'n so'm, ikki oydan keim bersang o'n besh so'm, uch oydan keyin bersang yigirma so'm, to'rt oydan keyin bersang yigirma besh so'm desa-yu, lekin, savdo vaqtida tomonlar ulardan birini tayin qilib olmay savdo qilishsa va xaridor o'zidan kelib chiqib, bir oyni tayin qilib olsa, bunday savdo bil ittifoq harom hisoblanadi va tomonlar aqdn buzib, ikkinchi marta yangidan savdo qilishlari vojib bo'ladi.

Shu o'rnida Shayx Muhammad Taqiy Usmoniyning bu borada aytgan gaplarini keltirishni lozim topdik:

أَمَّا الْأَيْمَةُ الْأَرْبَعَةُ وَجُمْهُورُ الْفُقَهَاءِ وَالْمُحَدِّثِينَ فَقَدْ أَجَازُوا الْبَيْعَ الْمُؤَجَّلَ بِأَكْثَرِ مِنْ سِعْرِ النَّقْدِ بِشَرْطِ أَنْ يَبْتَئَ الْعَاقِدَانِ بِأَنَّهُ بَيْعٌ مُؤَجَّلٌ بِأَجَلٍ مَعْلُومٍ وَيَبْتَمَنُ مُتَّفَقٍ عَلَيْهِ عِنْدَ الْعَقْدِ.

Ya'ni: "To'rtala mazhab imomlari va fuqaho muhaddislar jumhuri nasiyani naqdn bahosidan qimmatroq sotish savdosiga ijozat berganlar. Lekin, oluvchi va sotuvchi muayyan muddatga va kelishuv vaqtidagi muayyan narxga uzil-kesil kelishib olishlari shart"¹⁶⁹.

Demak, taqsit savdosi, modomiki unga yuqorida sanalgan fosid holatlar aralashib qolmasa joiz savdo hisoblanadi.

Yuqorida zamonaviy savdolarning ba'zilarini keltirib o'tildi. Mana shu savdolaridan boshqa savdo turlari ham bor. Xalqimiz orasidan kelib tushayotgan asosiy savollar yuqoridagi mavzular bo'yicha bo'lgandan keyin ular haqida batafsil yoritishga harakat qilindi. Alloh taolo barchamizni savdoda halol bo'lishimizni va halol rizq topishimizni O'zi nasib aylasin!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriy. Sahihul Buxoriy. – Suriya: "Muassasatur risala", 2020. – B.617
2. Muhammad ibn Iyso at-Termiziy. Sunani Termiziy. – Suriya: "Muassasatur risala", 2017. – 1-jild.
3. Abul Hasan Aliy ibn Abu Bakr al-Marg'inoniy. Hidoya. – Karachi: "Bushro", 2018. 5-juz. – B.269.
4. Alouddin Abu Bakr ibn Mas'ud al-Kosoniy. Badoe' us-sanoe'. – Bayrut: "Dorul kutubil ilmiyya", 2003. 4-juz. – B. 453.
5. Shayx Muhammad Taqiy Usmoniy. Buxus fiy qozoya fiqhiyya muosira. – Dimashq: "Darul qalam", 2020. – 1-jild.
6. Shayx Muhammad Taqiy Usmoniy. Fiqhul buyu' a'la mazahibil arbaa'. – Dimashq: "Darul qalam", 2020. – 2-jild.

¹⁶⁹ Shayx Muhammad Taqiy Usmoniy. Buxus fiy qozoya fiqhiyya muosira. – Dimashq: "Darul qalam", 2020. – 1-jild. B.12.

7. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va Hayot 11-juz. – Toshkent: “Hilol nashr”, 2008.
8. Nosirov. O., Yusupov. M. va boshqalar. An-Naim ul-kabiy (arabcha-o‘zbekcha lug‘at). – Namangan: “Namangan nashriyoti”, 2014.
9. <http://fiqh.uz/maqola/322>